



UDK:316.628.29

Rustam DUSHANOV,

*Toshkent xalqaro moliyaviy boshqaruv va texnologiyalar universiteti professori v.b., DSc, dotsent
E-mail: turgunovnaufal8@gmail.com*

IV Akademiyasi kriminalistika kafedrasida dotsenti D.Alibekov taqrizi asosida

ORGANIZATION OF PSYCHOLOGICAL SERVICE METHODOLOGICAL FOUNDATIONS

Annotation

This article presents the problems and solutions of the psychological service in the system of internal affairs bodies, as well as the socio-psychological factors for their improvement.

Key words: The concept of "psychological service", training in the field of psychology, system of values and orientation, motivational directions, stressors in the process of service, psychometric tests and questionnaires, psychological protection.

МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ОРГАНИЗАЦИИ ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ СЛУЖБЫ

Аннотация

В данной статье представлены проблемы и решения психологической службы, а также социально-психологические факторы их совершенствования.

Ключевые слова: Понятие «психологическая служба», подготовка кадров в области психологии, система ценностей и направленность, мотивационные направления, стрессоры в процессе службы, психометрические тесты и опросники, психологическая защита.

PSIXOLOGIK XIZMATNI TASHKIL ETISHNING METODOLOGIK ASOSLARI

Annotatsiya

Mazkur maqolada psixologik xizmat faoliyatining muammo va yechimlari, uni takomillashtirishning ijtimoiy psixologik omillar borasidagi fikr-muloxazalar bildirilgan.

Kalit so'zlari: "Psixologik xizmat" konsepsiyasi, psixologiya sohasida kadrlarni tayyorlash, qadriyatlar tizimi va yo'nalganlik, motivatsion soxalar, xizmat jarayonidagi stressogen omillar, psixometrik test va so'rovnomal, psixologik muxofaza.

Kirish. Inson psixologiyasini tahlil qilish va rivojlantirishga jiddiy e'tibor berish masalasi barcha zamonlar va davlatlarda ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning yetakchi vazifalaridan biri bo'lib kelgan.

XXI asrda psixologiya fani va uning ilg'or vakillari o'zlarining olamshumul ilmiy maqsadlari – insonga, ayni paytda, jamiyatga psixologik xizmat ko'rsatish tizimining muqarrarligini ilmiy va amaliy jihatdan asoslab berishga muvaffaq bo'ldilar.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev ta'kidlaganidek, «Oldimizda yoshlarga tarbiya berish, psixologiya va boshqa turli sohalarida kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash bo'yicha murakkab vazifalar turibdi»[1].

Chunki, bugungi kunda, psixologiya fani biz uchun eng zarur sohalaridan biri. Psixologiyani o'rganish – hayotni, insonni o'rganish degani. Kerak bo'lsa, rahbarlik qilmoqchi ekansiz, yetakchi bo'lib, odamlarga ko'rsatma bermoqchi ekansiz, oldin ularning psixologiyasini har tomonlama o'rganish kerak[2].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Umuman, psixologik xizmat ko'rsatish muammosi muayyan ma'noda, ilmiy psixologiyaning yetakchi yo'nalishlaridan biri sifatida ko'p bor munozaralar manbai bo'lgan. Bu haqda qadimgi va dastlabki psixologik tasavvurlar makoni bo'lmish Hindiston, Xitoy, Misr, Vavilon, O'rta Osiyo, Gresiya, shuningdek jon (ruh) xaqidagi birinchi kitobning muallifi Aristotel va temperament (mijoz) ta'limotining asoschilari Galen, Gippokrat va Ibn Sinolardan tortib, to hozirga qadar chet el (I.V.Dubrovina, G.M.Andreeva, L.P.Grimak, A.A.,Stolin, X.Y.Leymets, Yu.L.Sierd) hamda O'zbekiston psixologlari (M.G.Davletshin, E. G'oziev, G'B.Shoumarov, B.R.Qodirov, R.Gaynutdinov, V.M.Karimova, Sh.R.Baratov, Z.T.Nishonova, N.A.Sog'inov va boshq.) o'z fikr-mulohazalarini bildirganlar va bildirib kelmoqdalar.

Tarix va ijtimoiy hayot tamoyillari shuni ko'rsatmoqdaki, jamiyatning har tomonlama rivojlanishi va unda yuksak darajadagi hayot, turmush tarzining qaror toptirilishi, avvalo, har bir faoliyat ko'rsatuvchi shaxsdagi o'ziga xos psixologik salohiyatning nechog'lik to'la-to'kis namoyon etilayotganligi bilan belgilanadi. Zero, har bir mamlakatning porloq kelajagini odamlardagi ijodiy, intellektual va ma'naviy taraqqiyot yo'lida xizmat qiluvchi davlat mexanizmsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Shu boisdan bo'lsa kerak, hozirgi kunda barcha rivojlangan va rivojlanish yo'lidan borayotgan mamlakatlar birinchi galda o'z fuqarolarining ma'naviy, intellektual, jismoniy va

ruhiy barkamolligiga hamda undan ijtimoiy manfaatlar uchun samarali foydalanish yo'llarini izlashga jiddiy e'tibor qaratmoqdalar.

Tadqiqot metodologiyasi. Shu nuqtai nazardan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 7 iyundagi "Psixologiya sohasida kadrlarni tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish va jamiyatda huquqbuzarliklarning oldini olish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 472-sonli Qaroriga asosan "O'zbekiston Respublikasida psixologik xizmat ko'rsatishni yanada takomillashtirish" bo'yicha chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqildi. Unga ko'ra, uzluksiz ta'lim tizimida psixologik xizmat ko'rsatish faoliyatini yanada takomillashtirishga qaratilgan "Psixologik xizmat" konsepsiyasi yaratildi va bugungi kunda shu asosda, "Psixologik xizmatning psixodiagnostik faoliyatini ta'minlash" bo'yicha bir qator ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, ichki ishlar organlari tizimida, kasb tanlashga o'z istagini bildirgan fuqarolardan tashkilot yoki idora quyan vazifalarni bajara oladigan xislatlarga ega bo'lganlarni aniq psixometrik test va so'rovnomal, apparatli uslublar asosida o'rganib, nomzodning qadriyatlar tizimi va yo'nalishini, motivatsiyasi hamda istaklarini aniqlashga qaratilgan ishlar yo'lga qo'yildi[3]. Mazkur xizmatning asosiy vazifasi:

- xizmat faoliyati davomida ijtimoiy-iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-ruhiy muhitni va kriminogen vaziyatni psixologik jihatdan tahlil qilish;

- xodim shaxsida topshirilgan vazifaga ma'suliyat bilan yondoshish, tanlangan kasbga hurmat, xizmat vazifasini qonun doirasida bajarish hissinini shakllantirish;

- xodimlar bilan kasbiy tayyorgarlik tizimida xizmat vazifalarini bajarishda ahloqiylik, ma'nan komillik, ruhiy chidamlilik kabi sifatlarni rivojlantirish bo'yicha psixologik mavzular suhbatlar, seminar-trening mashg'ulotlarini o'tkazish;

- xodimlarning kasbiy ishchanlik qobiliyatini o'rganish, zo'riqish va dezadaptatsiya holatiga tushgan xodimlarni aniqlash, kelgusida malakali psixoterapevtik yordam ko'rsatish;

- xodimlar va ularning oila a'zolari bilan yakka tartibda psixologik suhbatlar o'tkazish, ularning shaxsiy, oilaviy qiyinchilik va muammolarini hal qilishga yordam berish;

- xodimlarning turmush tarzi, oilaviy ahvoli, muomala madaniyati, xizmat burchiga, qonunbuzarlikka, ta'magirlik va boshqa turdagi jinoyatlarni sodir etishga moyil shaxslar to'g'risidagi

ma'lumotlarni aniqlash, ular bilan psixokorreksion treninglar tashkil etish;

- kasbiy faoliyatning psixologik jarayonlari bo'yicha maslahatlar berish;

- xodimlar o'rtasida xizmat intizomi va qonunchilikni buzish, o'z joniga qasd qilish (suitsid) holatlari, xizmat faoliyati davomida yuzaga keladigan turli qiyinchiliklar va yo'l qo'yiladigan intizom buzilish sabablarini o'rganish, ularning oldini olish chora-tadbirlarini ishlab chiqish va bu borada rahbariyatga takliflar kiritish;

- turli toifadagi shaxslar bilan psixologik, tarbiyaviy-profilaktik va psixokorreksion ishlarini amalga oshirish kabilar kiradi.

Shu ma'noda, har qanday tizimda psixologik xizmat sohasi amaliy ahamiyat kasb etib, individual-shaxsiy, ijtimoiy, kasbiy, texnik kabi omillarning ta'siri asosida dolzarblashib bormoqda. Bu o'z navbatida, kasb tanlashga o'z istagini bildirgan fuqarolardan tashkilot yoki idora quyan vazifalarni bajara oladigan xislatlarga ega bo'lganlarni turli psixodiagnostik usullar orqali aniqlashga qaratilgandir[4].

Tahlil va natijalar. Kasbiy faoliyatining hozirgi sharoitida inson bajaradigan ishning muvaffaqiyati, samaradorligi, jamoadagi psixologik muhit ko'p darajada o'z harakatlarini boshqara olish, his-tuyg'ularini jilovlay olish, kayfiyatini nazorat qila olish, vaziyatning va atrofdagilarning talablari bilan hisoblashish qobiliyatiga bog'liq.

Inson ruhiyatiga har kuni turli stress xususiyatiga ega bo'lgan psixologik omillar ta'sir etadi. Bu esa o'z navbatida, charchash, holdan toyish, turli salbiy hissiy holatlarning yuzaga kelishi, kasbiy xizmat faoliyatidagi kamchiliklarga olib keladi.

Ruhiy va jismoniy zo'riqlashlar haddan tashqari katta bo'lganda, xodimning o'z xatti-harakatlarini nazorat qilishi va boshqarishi susayadi. Oqibatda asabiylashish, tajanglik holatlari yuzaga keladi. Bu esa faoliyat samaradorligini pasaytiradi va uning noto'g'ri tashkil etilishiga, ishda jiddiy xato va kamchiliklarga olib kelishi mumkin. Bunday vaziyatlarning takrorlanishi ko'pincha uzilishlarga, o'ziga bo'lgan ishonchning yo'qolishiga, asabiylashish holatlari sari yetaklaydi. Masalan, o'tkazilgan tadqiqotlarning ko'rsatishicha, kasbiy faoliyatda xodimlarning 30% uyg'usining buzilishidan shikoyat qiladilar, 70% dan ko'prog'i nevroitik holat ko'rinishlarining bir necha alomatlarini borligini ta'kidlaganlar. Bunday alomatlar ish kunining oxiriga borganda xodimlarda charchash (40%), diqqatning pasayishi (30%), tajanglik (15%), bosh og'rig'i va aylanishi (10%), uyqusizlik va darmonsizlik (5%) [5] kabi omillarda namoyon bo'lgan.

Shu nuqtai nazardan, har qanday muassasada kasbiy faoliyatning bajarilishiga nisbatan xodimlarda faol ishchanlik hamda ijobiy hissiy kechinmalar shakllantirilmas ekan, faoliyat mahsuli ham, xodim shaxsining o'z faoliyatidan ijtimoiy ma'nodagi qoniqishi ham nihoyatda past saviyada bo'ladi. Psixologik xizmat esa, bizningcha, xuddi ana shu yerda o'z ta'sirini, ya'ni faoliyatdan ijtimoiy qoniqish jarayonini ma'lum darajada yuqori saviyaga ko'tara olish san'atini ko'rsatishi lozim.

Chunki, xodim shaxsi faoliyatiga individual yondashuv yunalishi bilan bog'liq psixologik xizmatning ma'lum metodologik tamoyillarini ilmiy-tatbiqiy jihatdan qaraganda, "Asab tizimi nisbatan kuchsiz bo'lgan shaxslarda ko'pincha bir xildagi ishning bajarilishida muayyan afzalliklar borligi aniqlangan, ya'ni ularning yuqori sezgirli, tez ta'sirlanuvchanligi muvaf-faqiyatni, ish samaradorligini ta'minlaydi, lekin u yoki bu faoliyat jarayonidagi favqulodda va kuchli qo'zg'aluvchilar asosida namoyon bo'luvchi nostandart vaziyatlarda esa kuchsiz tipdagi shaxslar aynan o'zlarining fiziologik xususiyatlariga ko'ra berilgan topshiriqni uddalay olmay qolishlari mumkin"[6].

Shu ma'noda, har bir shaxsga psixologik xizmat davomida o'z imkoniyatlari va faoliyat talabi uyg'unligini ta'minlash yo'llarini

izlash asosida yondashilsa, mazkur shaxs faoliyatidagi individual uslubning tarkib topishi tobora rivojlanib, takomillashib boradi. Bu esa, o'z navbatida, shaxs va jamiyatning ijtimoiy taraqqiyotiga ijobiy ta'sir etmay qolmaydi.

Demak, har qanday muassasada faoliyat ko'rsatayotgan instektor-psixolog har bir shaxs faoliyati hamkorligini tashkil etish jarayonida ushbu imkoniyatlarni hisobga olishi orqali ijtimoiy-psixologik yutuqlarga erishishi mumkin.

Psixologik xizmat ko'rsatishda muhim ahamiyat kasb etuvchi individ, shaxs va sub'ekt rivojining tadqiqotida quyidagi holatlarga jiddiy e'tibor berish zarur:

- inson rivojlanishining determinatori hisoblangan asosiy omillar va shart-sharoitlar (ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, huquqiy, mafkuraviy, pedagogik va yashash muhiti omillari);

- insonning o'ziga taalluqli, asosiy tafsilotlar, uning ichki konuniyatlari, mexanizmlari, e'tiqod bosqichlari barqarorlashuvi;

- inson yaxlit tuzilishining asosiy tarkiblari, ularning o'zaro aloqalari, shaxsning tashqi ta'sirlarga javobi va munosabati, taraqqiyot jarayonida ularning takomillashuvi.

Darhaqiqat, har bir insonning o'z individual olamida sodir etilayotgan barcha ma'naviy va ruhiy kechinmalarini u yashab turgan jamiyat istiqbollariga mos tarzda tadqiq qilmay turib, shaxs va faoliyat, shaxs va jamiyat, shaxs va individuallik o'rtasidagi ijtimoiy mutanosiblikni ta'minlab bo'lmaydi. Zero, psixologik muhofaza vositasi sifatida tadqiq qilinayotgan ijtimoiy psixologik himoya falsafasi ham shuni taqozo etmoqda.

Psixologik xizmat ko'rsatishda, uning ob'ekti va sub'ekti hisoblangan shaxsga munosabat tizimi asosida kompleks yondashuv istiqbollarini ko'rsatib beruvchi tadqiqotlarga ham alohida to'xtalishga to'g'ri keladi. Chunki shaxsning psixologik xizmat jarayonida namoyon bo'luvchi va rivojlantirib borilishi muqarrar bo'lgan o'z-o'ziga, o'zgalarga (shaxslararo) va faoliyatga nisbatan tarkib topayotgan munosabatlarning ijtimoiy saviyasini o'rganmay, tahlil qilmay turib, uning o'z-o'zidagi noxush hislardan, o'zgalalar bilan hamkorlik o'rnatishi bilan bog'liq ziddiyatli vaziyatlardan, faoliyatdagi muvoffaqiyatsizliklardan psixologik muhofaza qilishga qaratilgan tadbirlar ko'lamini belgilab bo'lmaydi.

Xulosa va takliflar. Yuqoridagilardan kelib chiqib, har bir tashkilotda psixologik xizmat faoliyatini talqin qilinganda quyidagi amaliy-tatbiqiy yo'nalishlarga bugungi kunning eng dolzarb muammolari sifatida qarashni taqozo etadi. Ya'ni:

1. Psixologik xizmat har bir xodim shaxsining o'z faoliyatdan ijtimoiy va hissiy qoniqish jarayonini tadqiq qilishga qaratilgan usullar va uslublar majmuasiga asoslanishi lozim;

2. Psixologik xizmat xodim shaxsining faoliyat jarayonidagi o'z-o'ziga, o'zgalarga va faoliyatga bo'lgan munosabatlaridagi ierarxik tizim dinamikasini tadqiq qilishi va shu tizim asosida ijtimoiy psixologik muhitning yaratilishiga zamin hozirlay olishi bilan bog'liq izlanishlar ko'lamini o'z ichiga olishi zarur.

3. Psixologik xizmat jarayoni bilan bog'liq ijtimoiy muhim ko'rsatkich-larning tahlili har bir xodim shaxsi faoliyati uchun xarakterli bo'lgan individual farqlanish, individual uslub va ijtimoiy ustanovkaning qaror toptirilishini o'rganish asosida amalga oshirilishi muhim.

4. Har bir tashkilotda psixologik xizmat jarayonini ijtimoiy psixologik muhofaza vositasi sifatida tadqiq qilish muammosi bugungi kunda ijtimoiy psixologiyaning eng dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi va bu muammoni bartaraf etishda ma'lum psixologik prinsiplarga tayanish talab qilinadi.

Qayd etilgan ushbu yo'nalishlar maqolaning bosh g'oyasini, vazifalarini, empirik ma'lumotlar ko'lamini bilan bog'liq psixologik xizmatning bugungi holati va o'ziga xos istiqbollariga baho berishda ma'lum nazariy hamda metodologik manba sifatida xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR

1. Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib - intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. Toshkent – «O'zbekiston» - 2017. – 45-b.
2. O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Karimov I. A. Inson, uning huquq va erkinliklari – oliy qadriyat. –T. 14. – T., 2006. – 121–122-b.
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 7 iyundagi "Psixologiya sohasida kadrlarni tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish va jamiyatda huquqbuzarliklarning oldini olish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 472-sonli Qarori.
4. Скалин Ю.Е. Профессиональный психологический отбор оперативных сотрудников уголовного розыска. // Автореф... дис. к... психол...н. – Санкт-петербург. 2010. 26 с.
5. Dushanov R.X. Ichki ishlar organlari tezkor-qidiruv faoliyati sub'ektlarining psixologik jihatlari. Monografiya. O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi. Toshkent, 2022. – 140 b.
6. Dushanov R.X., Farfiev Yo.A. Kasbiy psixologiya. Darslik. – T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2014. – 350 b.